XALQ DEPUTATLARI YANGIYO‘L TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 5-yanvar VII-22-1-10-146-K/26 Yangiyo‘l tumani

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 2026-yil uchun qabul qilingan byudjet to‘g‘risidagi Qonuni talablari asosida, Yangiyo‘l tumanining 2026-yil uchun belgilangan Byudjetini tasdiqlash.

Kun tartibiga qo‘yilgan, O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-sonli qonuni, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori, Toshkent Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi 04/984-sonli xati talablari asosida, Yangiyo‘l tumanining 2026-yil uchun belgilangan Byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida, Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi boshlig‘ining Byudjet masalalari bo‘yicha o‘rinbosari R.K.Saliyevni ma’ruzasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashini VII chaqiriq navbatdan tashqari XXIII sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. Yangiyo‘l tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi boshlig‘ining Byudjet masalalari bo‘yicha o‘rinbosari R.K.Saliyevni ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining “Toshkent viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Yangiyo‘l tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **122 mlrd. 338 million 660 ming so‘m** va xarajatlari esa **122 mlrd. 338 million 660 ming so‘m** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **0,0 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Yangiyo‘l tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **578 million 532 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

4. 2026-yil uchun Yangiyo‘l tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori **1-ilova**ga muvofiq hamda 2026-yil uchun Yangiyo‘l tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Yangiyo‘l tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 mlrd. 548 million 419 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Quyidagilar:

Yangiyo‘l tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga;

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Toshkent viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

7. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 548 419,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

8. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga,

yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutlaq miqdorlari **5-ilova**ga,

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilova**ga,

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **7-ilova**ga,

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **8-ilova**ga,

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **9-ilova**ga,

Yangiyo‘l tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **10-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

9. Yangiyo‘l tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b. L.A.Ibragimov, tuman soliq inspeksiyasi (O.M.Saidov) bilan birgalikda 2026-yilda mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

10. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarning joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

11. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiyo‘l tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (N.Q.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari L.A.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ATAULLAYEV ODILJON KASIMOVICH**

Xalq deputatlari Yangiyoʻl tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming.soʻmda

T/r	Daromad turlari	Yangiyoʻl tumani
	JAMI	**122 338 660,0**
1	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	**2 494 320,0**
2	Foyda soligʻi	**996 330,0**
3	Aylanmadan olinadigan soliq	**10 220 000,0**
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	**5 255 850,0**
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	**2 464 000,0**
6	Aksiz soligʻi jami	**3 953 000,0**
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	**0**
	pivo	**0**
6	*benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi*	***3 953 000,0***
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	**10 093 500,0**
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	**15 145 000,0**
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	**34 186 500,0**
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	**29 866 000,0**
11	Qurilish materiallari boʻyicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	**664 000,0**
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	**4 332 400,0**
	shundan: Qishloq xoʻjaligi korxonalari boʻyicha suv soligʻi	**4 644 000,0**
	Qishloq xoʻjaligi korxonalari suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	**-1 857 600,0**
13	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	**0**

14	Davlat boji	**741 660,0**
15	Yig‘imlar	**459 750,0**
16	Jarimalar	**1 250 350,0**
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	**216 000,0**

Xalq deputatlari Yangiyoʻl tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming.soʻmda

T/r	Hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Yangiyoʻl tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**122 338 660,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi boʻlimi	**34 427 121,0**
	shundan:	
	"Mening maktabim"	**3 399 000,0**
2	Madaniyat boʻlimi	**7 230 434,0**
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	**4 746 536,0**
4	Sport boʻlimi	**6 560 009,0**
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	**1 592 078,0**
6	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	**3 036 855,0**
7	Irrigasiya boʻlimi	**2 638 296,0**
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari	**2 131 432,0**
9	Hokimiyat	**41 024 391,0**
	shundan:	
	Ijtimoiy koʻnikma markazlari	**232,640**
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	**22 351 114,0**
	"Mahalla byudjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	**1 772 369,0**
	Zahira jamgʻarmasi	**1 548 419,0**
10	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	**649 158,0**
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	***0***
	Axborot-kutubxona markazlari	***649 158,0***
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	**18 302 350,0**

Xalq deputatlari Yangiyoʻl tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Yangiyoʻl tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari

Foizda

T/r	Umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlar	byudjet	Yirik va hududiy soliq toʻlovchilar	Ajratma me'yori
1	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	3%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	5%
3	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	Tuman byudjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
4	Foyda soligʻi	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	3%
5	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
	pivo	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
	benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	10%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	50%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	75%
8	Qurilish materiallari boʻyicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
10	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	0%

11	Aylanmadan soliq	Tuman byudjetiga	100%
12	Davlat boji	Tuman byudjetiga	6%
13	Jarima	Tuman byudjetiga	5%
14	Yig‘imlar	Tuman byudjetiga	5%

Xalq deputatlari Yangiyoʻl tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar, jismoniy shaxslar boʻyicha *(dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan erlardan tashqari)* **mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlarni qoʻllagan holda er soligʻi stavkalari**

№	Mahalla fuqarolar yigʻini nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari, 1 gektar uchun		Jismoniy shaxslar boʻyicha, 1 m² uchun (turar joylar uchun belgilangan oʻsish me'yoridan oshmagan holda)	
		koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	yer soligʻi stavkasi 2026-yil uchun (soʻmda)	koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	yer soligʻi stavkasi 2026-yil uchun (soʻmda)
1	Yuksalish MFY	1,45	88 305 000,0	1,20	540,96
2	Nihol MFY	1,00	60 900 000,0	0,90	405,72
3	Ibrat MFY	1,15	70 035 000,0	1,00	450,80
4	Jambul MFY	1,25	76 125 000,0	1,10	495,88
5	Yoshlik MFY	1,35	82 215 000,0	1,20	540,96
6	Doʻstlik MFY	0,90	54 810 000,0	0,80	360,64
7	Dehqonobod MFY	1,25	76 125 000,0	0,90	405,72
8	Darxon MFY	1,20	73 080 000,0	1,00	450,80
9	Guliston MFY	1,30	79 170 000,0	1,20	540,96
10	Gulbogʻ MFY	1,15	70 035 000,0	1,00	450,80
11	Gulbaxor MFY	1,70	103 530 000,0	1,50	676,20
12	Gʻalaba MFY	1,30	79 170 000,0	1,20	540,96
13	Vatan MFY	0,90	54 810 000,0	0,80	360,64
14	Bunyodkor MFY	1,30	79 170 000,0	1,20	540,96
15	Binokor MFY	1,30	79 170 000,0	1,10	495,88

16	Baytish MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
17	Axil MFY	1,30	79 170 000,0	1,20	540,96
18	Ittifoq MFY	1,05	63 945 000,0	0,90	405,72
19	Yangiyo`l MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
20	Navbaxor MFY	1,70	103 530 000,0	1,50	676,20
21	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,00	60 900 000,0	0,90	405,72
22	Mingbuloq MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
23	Markaz MFY	1,05	63 945 000,0	0,90	405,72
24	Madaniyat MFY	1,15	70 035 000,0	1,00	450,80
25	Qush tepa MFY	1,25	76 125 000,0	1,10	495,88
26	Qo`sh yog`och MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
27	Ko`kalamzor MFY	1,70	103 530 000,0	1,50	676,20
28	Qora tepa MFY	1,25	76 125 000,0	1,10	495,88
29	Qovunchi MFY	1,40	85 260 000,0	1,30	586,04
30	Qirsadak MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
31	Qirariq MFY	1,70	103 530 000,0	1,70	766,36
32	Kesken MFY	1,15	70 035 000,0	1,00	450,80
33	Iftixor MFY	0,95	57 855 000,0	0,90	405,72
34	Niyozbosh MFY	1,30	79 170 000,0	1,30	586,04
35	Chamanzor MFY	1,30	79 170 000,0	1,10	495,88
36	Nurobod MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
37	Obod MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
38	Ozod MFY	1,20	73 080 000,0	1,00	450,80
39	Olmazor MFY	1,20	73 080 000,0	1,10	495,88
40	Paxta MFY	1,20	73 080 000,0	1,00	450,80
41	Registon MFY	1,30	79 170 000,0	1,10	495,88
42	Saxovat MFY	1,15	70 035 000,0	1,00	450,80
43	Said-ota MFY	1,70	103 530 000,0	1,60	721,28
44	Umid MFY	0,90	54 810 000,0	0,80	360,64
45	Tuya bug‘iz MFY	1,25	76 125 000,0	1,20	540,96
46	Sho‘ralisoy MFY	1,00	60 900 000,0	0,80	360,64
47	Epkendi MFY	1,15	70 035 000,0	1,00	450,80
48	Xonqo`rgon MFY	1,25	76 125 000,0	1,10	495,88
49	Xalqobod MFY	1,25	76 125 000,0	1,10	495,88
50	Farovon MFY	1,30	79 170 000,0	1,30	586,04
51	O‘zbekiston MFY	1,35	82 215 000,0	1,20	540,96

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman (shahar) nomi	koeffisient
1	Yangiyo‘l tumani	1.00

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/r	Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda	koeffisient
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,34	1,05
2.	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	0,45	1,05
	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	0,6	1,15
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,45	1,05
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob'ektlari	1,5	1,00

Xalq deputatlari Yangiyoʻl tumani Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qoʻllaniladigan koeffisientlar miqdori

(Qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar) nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		yer usti	yer osti	yer usti	yer osti	yer usti	yer osti	yer usti	yer osti
1	Yangiyoʻl tumani	1.15	1.17	1.20	1.20	1.15	1.17	1.20	1.20

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisientlar miqdori

T/r	Tuman (shahar) nomi	Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, marmar, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granitlar, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi
1	Yangiyo‘l tumani	1.30	1.30	1.35

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
9-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisientlar miqdori

ming so‘mda,

T/r	**Tuman (shahar) nomi**	**Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i, ming so‘mda**					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2026-yil minimal qiymat	Koeffi-sient	2026-yil stavka	2026-yil minimal qiymat	Koeffi-sient	2026-yil stavka
1	**Yangiyo‘l tumani**	**5.50**	**1.05**	**6.20**	**11.00**	**1.20**	**14.16**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l tumani
Kengashining
2026-yil 5-yanvardagi
VII-22-1-10-146-K/26 -son qaroriga
10-ilova

Yangiyoʻl tumani mahalliy byudjetining shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida turgan byudjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori

soʻmda,

№	Hudud nomi	2025-yil
1	Yangiyoʻl tumani	578 532